

THE JIZAK REVOLUTION AND ITS CONSEQUENCES

Kozimjon Olimov

Namangan State University, History student

Annotation: This article discusses the course and significance of the Jizzakh Uprising, an organized people's movement organized under the beacon of freedom to oppose the injustices, injustices, frauds and deceptions of the war years. Data are given.

Keywords: Jizzakh, Abdurahmon Jevachi, volost, decree, mobilization, king, front.

JIZZAX QO'ZG'OLONI VA UNING OQIBATLARI

Kozimjon OLIMOV

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada urush yillari safarbarlik e'lon qilishdagi nohaqliklar, adolatsizliklar, ko'zbo'yamachiliklar, aldovlarga qarshilik qilish maqsadida erk mayog'i ostida tashkil etilgan, uyushgan xalq harakati – “Jizzax qo'zg'oloni” ning borishi va ahamiyati xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax, Abdurahmon Jevachi, volost, farmon, safarbarlik, podsho, front.

Аннотация: В данной статье обсуждается ход и значение Джизакского восстания, организованного народного движения, организованного под маяком свободы для противодействия несправедливости, несправедливости, мошенничеству и обману военных лет.

Ключевые слова: Джизак, Абдурахмон Джевачи, волость, указ, мобилизация, царь, фронт.

XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1914 – 1918-yillarda bo'lib o'tgan va butun dunyoni qamrab olgan birinchi jahon urushi davrida misli ko'rilmagan talafotlar sodir bo'ldi. Bu voqea natijasida faqatgina askarlar emas, balki front ortida qora ish qilish majburiyati yuklatilgan aholi vakillari ham aziyat chekishgan. Front ortiga xizmatga chaqirilish jarayonida turli xil adolatsizliklarga yo'l qo'yildi. Oqibatda, o'lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi.

1916-yil 25-iyunda rus imperatori Nikolay II ning “Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llarini qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida” gi farmoni e'lon qilindi [1]. Farmonga binoan, Turkiston o'lkasidagi rus bo'lmagan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan jami 250 ming erkak front ortidagi ishlarga safarbar qilish ko'zda tutilgan edi. Lekin farmonning bunday tarzda Turkiston o'lkasiga tatbiq etib bo'lmasligini tajribali podsho amaldori, sobiq harbiy vazir A. N. Kuropatkin ham tushungan edi. U vazir yordamchisi general Frolovga Rossiyada ikki yildan beri davom etib, nihoyasi ko'rinmagan bu tadbirni, ya'ni urushga 19 – 43 yoshli aholini safarbar qilish masalasi hal bo'lmagan holda uni chekka o'lkalarga tatbiq etish noto'g'riligini ko'rsatgan edi [2].

Farmonga ko'ra, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi [3]. Bu xabar Turkiston bo'ylab yashin tezligida tarqadi va alamzada mehnatkashlarni larzaga soldi. Mahalliy ma'murlar katta poralar evaziga boylar va amaldor to'ralarning farzandlarini safarbarlikdan qoldirar, ko'proq kambag'al oilalarning farzandlarini ro'yxatga qo'shib qo'yar

edilar. Bunday nohaqlik xalqni bosh ko'tarishga majbur qildi. Shu tariqa, Turkistonda tarixda Jizzax qo'zg'oloni nomi bilan ma'lum bo'lgan umumxalq qo'zg'oloni sodir bo'ldi.

Dastlab qo'zg'olon Samarqand viloyatining Xo'jand shahrida 1916-yil 4-iyulda boshlandi [4]. Bu yerda to'plangan 6-7 minglar chamasi olomon politsiya idorasini qurshab oldi va mardikorlikka bormasligini ma'lum qildi. Jizzax uyezdidan 10531 kishi mardikorlikka jo'natilishi kerak edi. Shu jumladan Jizzax shahridan 655 kishi, Zomin volost (tuman)i bo'yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bag'dod volosti bo'yicha 2311 kishi ko'rsatilgan edi [5].

Qo'zg'olonchilarning oldingi saflarida Abdumadaminov, Dadaboy Masharipov, Yahyoxon Qori Olimxonov Eshonxon Mirza O'rinov kabi xalq vakillari bor edilar. Qo'zg'olonning markazi Shotolib qishlog'ida edi. Hayitboy Haydarovning "Jizzax tarixidan lavhalar" risolasida hikoya qilinishicha, bu qo'zg'olonda Abdurahmon Jevachi barcha qaym-u qarindoshlari bilan faol qatnashgan. Abdurahmon Jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar 1916-yil 14-iyul kuni Bog'don mirshablarni mahkamasiga hujum qilishadi. Yo'l-yo'lakay Yangiqishloq yaqinida mahkama raisining o'rinbosari S. N. Simbirtsevnini Jizzax jazo otryadini chaqirish to'g'risidagi maxfiy xat bilan qo'lga olishadi.

O'zbek shoiri Fozil Yo'ldosh (1872-1955) ning "Jizzax qo'zg'oloni" dostonida quyidagi satrlar ifoda etiladi:

Podshoga qashi boraylik,
Podsho kimdir, biz bilmaymiz,
Podsho yordamchisin topib,
Urta deb ot qo'yayliq,
Yo olaylik yo o'laylik,
Sira qaytmanglar xaloyiq,
Mehnatkashsan zulm o'tdi,
Suyaklar o'rtanib ketdi.
Qattiq zulm o'tgandan so'ng,
Shuncha xalq qo'zg'olon qibdi [6].

Birin ketin butun Jizzaxni egallab olgan qo'zg'olon imperiyaning bor e'tiborini qo'zg'olonga qaratishga majbur etdi. Oq imperiya qo'shinlari bilan so'nggi to'qnashuv 1916-yil 21-iyulda Qilich qishlog'ida bo'lib o'tdi. Ivanov boshchiligidagi katta kuchga ega bo'lgan jazo otryadi qo'zg'olonni bostiradi [7].

1916-yilning 26 – 27-iyul kunlari Bog'don muzofotining o'zida sudsiz-tergovsiz 120 kishi otib tashlanadi. Keyinchalik esa qo'zg'olonchilar ustidan 148 ta jinoiy ish qo'zg'atildi. 3000 kishi sudlandi. 22 kishi o'limga, 104 kishi surgunga va 281 kishi qamoq jazosiga hukm qilindi [8]. Sud hukmi o'qilgandan so'ng Abdurahmon Jevachiga: "Agar sen xaloyiq oldida qilgan ishimdan pushaymonman, tavba qildim, meni kechiringlar deb aytasang seni o'limdan ozod qilamiz" deb aytishgan. Abdurahmon Jevachi g'azablanib: "Men sotqin emasman. Men xalq ozodligi uchun kurashdim, o'z yo'limdan hech ham qaytmayman, alvido yurtdoshlar!" deya javob bergan edi.

Asrlar davomida nohaqlik, adolatsizlik, tabaqalanishga qarshi millat qahramonlari demokratik-ozodlik harakatlari olib borganlari qatori Abdurahmon Jevachi siyosiy Vatan va millat ozodligi, adolat uchun kurashda namuna timsolidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyoyeva H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq, 1998. – B. 412-413.
2. Ziyoyeva H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq, 1998. – B. 415-416.
3. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Akademnashr, 2019. – B. 303.

4. Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2019. – B. 104.
5. Haydarov X. Jizzax tarixidan lavhalar. – T.: Akademnashr. – B. 34.
6. Hoshimov S., Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1-kitob. – T.: Sharq, 2020. – B. 464.
7. Rahimov M., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: Fan, 2019. – B. 313.
8. Ergashev Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. – T.: G'afur G'ulom, 2018. – B. 293.